

UO‘T: 338.48(575.1):726.7(091)(045)

KARVONSAROYLAR—TARIX VA TURIZM KO‘PRIGI

Axtamova Muhayyo Anvar qizi

Turizm va mehmondo‘stlik ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi,

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti.

Annotatsiya: Mazkur maqolada karvonsaroylarning tarixiy ahamiyati va ularning bugungi turizm sohasidagi o‘rni tahlil qilingan. O‘zbekiston hududidagi Raboti Malik, Karmana, Sayrob kabi karvonsaroylarning iqtisodiy va madaniy hayotdagi o‘rni haqida ma’lumot berilgan. Maqolada karvonsaroylarni restavratsiya qilish va ularni zamonaviy mehmonxona konsepsiyasi bilan uyg‘unlashtirish orqali tarixiy merosni asrash, turizmni rivojlantirish va mahalliy iqtisodiyotga hissa qo‘shish imkoniyatlari asoslab berilgan. Ushbu tadqiqot natijalari karvonsaroylarning O‘zbekiston turizmida kuchli “brend”ga aylanishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: karvonsaroylar, Ipak yo‘li, mehmonxonalar, ecotizim, turizm sanoati, Tumanqo‘rg‘on qal’asi, Rabot, tarixiy meros, QR-kod, restavratsiya qilish, turizm brendi.

Аннотация: В статье анализируется историческое значение караван-сараев и их роль в современной индустрии туризма. Представлена информация о роли таких караван-сараев, как «Работи Малик», «Кармана» и «Сайраб», в экономической и культурной жизни Узбекистана. Обосновываются возможности сохранения исторического наследия, развития туризма, реставрации караван-сараев и внесения вклада в местную экономику путем их сочетания с современной гостиничной концепцией. Результаты исследования показали, что караван-сарай могут стать сильным «брендом» в узбекском туризме.

Ключевые слова: Караван-сарай, Шелковый путь, гостиницы, экосистема, туристическая индустрия, Туманкурганский замок, Рабат, историческое наследие, QR-код, реставрация, туристический бренд.

Abstract: This article analyzes the historical significance of caravanserais and their role in today's tourism industry. Information is provided on the role of caravanserais such as Raboti Malik, Karmana, and Sayrab in the economic and cultural life of Uzbekistan. The article substantiates the possibilities of preserving historical heritage, developing tourism, and contributing to the local economy by restoring caravanserais and combining them with a modern hotel concept. The results of this study show that caravanserais can become a strong "brand" in Uzbek tourism.

Keywords: Caravanserais, Silk Road, hotels, ecosystem, tourism industry, Tumankurgan Castle, Rabat, historical heritage, QR code, restoration, tourism brand.

Kirish. Karvonsaroylar — o‘tmishning o‘ziga xos “mehmonxonalari” bo‘lib, ular Ipak yo‘li bo‘ylab savdogar va sayohatchilar uchun tunash, dam olish, muloqot va tovar almashish markazi vazifasini bajargan. Ularning ichki hovlilari, mehmonxonalari va hatto kichik masjidлари bo‘lgan. O‘zbekiston hududidagi Raboti Malik, Karmana, Sayrob kabi karvonsaroylar o‘sha davrning madaniy, iqtisodiy va diplomatik hayotida muhim o‘rin tutgan. Har bir karvonsaroyning asosiy maqsadi yo‘lovchilarga xavfsizlik va qulaylik yaratish edi — bu jihatdan ular bugungi zamonaviy mehmonxonalarga o‘xshab ketadi. Karvonsaroylar ham o‘sha davr “servis markazi” bo‘lgan — bunda odamlar nafaqat dam olgan, balki karvonlariga xizmat ko‘rsatgan, otlarini boqdirgan va yangiliklardan xabardor bo‘lgan. Demak, karvonsaroylar o‘tmishda faqat bino emas, balki butun bir ijtimoiy-madaniy ekotizim bo‘lgan. Bugungi turizmда ularni qayta tiklash va zamonaviy mehmonxona konsepsiyasi bilan uyg‘unlashtirish, nafaqat tarixni saqlash, balki sayyohlar uchun noyob tajriba yaratish imkonini beradi.

O'rta Osiyo shaharlari hayotida karvonsaroylar muhim o'rin egallagan. Ayniqsa, ular Buxoro va Toshkent shaharlarida ko'p bo'lgan. Masalan, XIX asr oxirlari va XX asrning boshlarida Buxoroda 60 ga yaqin karvonsaroy faoliyat yuritgan. Yer maydonidan unumli foydalanish maqsadida ular ko'pincha ikki qavat qilib qurilgan. Quyi qavatdagi xonalarni, odatda badavlatroq savdogarlar ijaraga olganlar. Karvonsaroylarda bunday savdogarlar zaxira mollarini saqlaganlar, tijoriy bitimlar tuzganlar. Karvonsaroy xonalari ham dam olish maskani, ham namoz o'qiydigan xona vazifasini o'tagan. Sidorenkoning asarida tasvirlangan bunday binoning hovlisi Buxorodagi karvonsaroyning o'ziga xosligini aniq ifodalab bera olgan. Buxoroning ko'plab karvonsaroylari yagona reja asosida qurilgan. Ular katta kvadrat shakldagi ikki qavatli binolardir, ularning tashqi devorlarida shaharning deyarli barcha binolaridagi kabi derazalar yo'q. Birinchi qavatda eshiklari hovliga ochiladigan tor chuqur omborxonalar joylashgan; ikkinchi qavatda savdogarlar, hunarmandlar, hindlar, buxoroliklar yoki tatarlar tashrif buyurishadi. Omborxonalarga, shuningdek, ikkinchi qavatdagi xonalarga yorug'lik eshik orqali yoki eshik ustiga o'yilgan kichik derazalar orqali kiradi [3;92].

Shu bois karvonsaroylar turizm sohasida katta strategik ahamiyatga ega obyekt sifatida qayta tadqiq etilishi va targ'ib qilinishi zarur. Bugungi zamonaviy mehmonxonalar turizm sanoatining yuragi hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzuni yoritishda foydalanilgan ilmiy manbalar karvonsaroylarning tarixiy rivojlanishi, me'moriy xususiyatlari va ularning zamonaviy turizmga tutgan o'rni haqida muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. V. Sidorenkoning "Buxoroning me'moriy yodgorliklari" nomli asari karvonsaroylarning me'moriy tuzilishi, qurilish uslubi va funksional xususiyatlarini yoritib beradi. Muallif Buxoro shahridagi karvonsaroylarning rejalashtirish tizimi, ikki qavatli tuzilishi hamda iqtisodiy faoliyatdagi o'rnini batafsil tahlil qilgan. Bu ma'lumotlar karvonsaroylarni o'sha davrning ijtimoiy-iqtisodiy hayot markazi sifatida baholash imkonini beradi [2].

P. I. Demezoning “Buxoro xonligi haqida eslatmalar” asari esa XIX asrda mavjud bo‘lgan karvonsaroylarning soni, savdogarlarning faoliyati va xalqaro savdo yo‘llari bilan bog‘liqligi haqida birlamchi tarixiy manba sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif karvonsaroylar orqali o‘tgan savdo karvonlarining geografiyasini va ularning iqtisodiy ta’sirini ko‘rsatib beradi [4]. Internet manbalaridan, xususan Ziyouz.com hamda O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi rasmiy sayti (www.uzbektourism.uz) orqali olingan ma’lumotlar esa karvonsaroylarning bugungi kunda qayta tiklanish holati, ularni turizm obyektiga aylantirish yo‘nalishidagi tashabbuslar va hukumat dasturlari haqida dolzarb ma’lumot beradi. [5], [6], [7].

Materiallar va uslublar. Maqolani tayyorlash jarayonida O‘zbekiston hududidagi eng mashhur karvonsaroylar — Raboti Malik, Karmana, Sayrob, Tumanqo‘rg‘on kabi obidalar haqida tarixiy manbalar, ilmiy adabiyotlar hamda arxiviy ma’lumotlar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida karvonsaroylarning o‘tmishda qanday vazifa bajargani, ular orqali qanday savdo yo‘llari o‘tganini, ularning bugungi holati va turizmga tutgan o‘rni o‘rganildi. Ayniqsa, maqolada qayd etilganidek, Buxoro shahrida XIX asr oxirlarida 60 ga yaqin karvonsaroy faoliyat ko‘rsatgani, ularning ko‘pchiligi ikki qavatli bo‘lgani va pastki qavatlarda omborxonalar, yuqori qavatlarida esa savdogarlar uchun xona va ibodat joylari bo‘lgani haqidagi tarixiy faktlar asos qilib olindi. Maqolada shuningdek Tumanqo‘rg‘on qal’asi va “Rabot” joylari haqida ma’lumotlar asosida karvonsaroylarning geografik joylashuvi va strategik ahamiyati yoritildi. Ular o‘sha davrda Kesh, Naxshab, Chag‘oniyon yo‘nalishlaridagi asosiy savdo chorrahalari sifatida faoliyat yuritgan. Tadqiqot davomida karvonsaroylarni zamonaviy turizmga qayta jonlantirish imkoniyatlari ham o‘rganildi.

Natijalar va munozara. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, karvonsaroylar o‘tmishda nafaqat savdogarlar uchun tunash joyi, balki butun bir ijtimoiy-madaniy ekotizim bo‘lgan. Ular orqali nafaqat tovarlar almashilgan, balki madaniyatlar, urf-

odatlar, til va g'oyalar ham bir-biriga singib ketgan. Ayniqsa, O'zbekiston hududidagi Raboti Malik, Karmana, Sayrob va Tumanqo'rg'on kabi karvonsaroylar o'z davrining eng yirik savdo markazlari bo'lib, Ipak yo'li orqali o'tgan xalqaro karvonlarning muhim to'xtash joyiga aylangan. Munozaralar jarayonida shuni aytish mumkin: karvonsaroylar O'zbekiston turizmida nafaqat tarixiy meros, balki turistik brend sifatida qayta jonlanish imkoniga ega. Agar ularni restavratsiya qilish bilan bir qatorda QR-kodlar orqali virtual tarixiy sahnalar, gastronomik festivallar, jonli teatr sahnalari kabi zamonaviy yondashuvlar bilan boyitilsa, ular sayyohlar uchun haqiqiy tarixiy tajriba manbaiga aylanadi.

Xulosa. Demak, karvonsaroylarni faqat restavratsiya qilish emas, balki ularni zamonaviy mehmonxona konsepsiyasi bilan birlashtirish kerak: jonli teatr sahnalari, tematik kechalar, gastronomik festivallar, interaktiv tarixiy o'yinlar. Shunda mehmonlar oddiy sayohatchi emas, balki tarix ishtirokchisiga aylanadi. Shu bois karvonsaroylar O'zbekiston turizmining eng kuchli "brendi"ga aylanishi mumkin. Ular orqali biz nafaqat tariximizni saqlab qolamiz, balki sayyohga unutib bo'lmaz hissiyotlar sovg'a qilamiz — bu esa turizmning eng asosiy maqsadi bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hamroyev Halim Roziqovich. Turizm mamlakatshunosligi. Darslik. "Durdona" nashriyoti. Buxoro_2022.
2. Sidorenko, V. Buxoroning me'moriy yodgorliklari . Toshkent: fan, 1972 yil.
3. Feruza Bobojonova. Buxoro me'moriy obidalar tarixi. O'quv qo'llanma. 2022. [92]
4. Demeson, P. I. Buxoro xonlik haqida eslatma -S Peterburg, 1843 yil.
5. <https://academy.uz/uz/news/orta-osiyo-karvonsaroy-rabotlar-tarixi-qachon-boshlangan>.
6. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi rasmiy sayti: www.uzbektourism.uz